



European science international conference:



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

BALDASSARE DEGLI EMBRIACHI QURBONGOHI TAHLILI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axatova Zohira Aktam qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti, San'atshunoslik (tasviriy va amaliy
san'at) yo'nalishi 3 bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Embriachi ustaxonasi muallifligida ishlangan Baldassare degli qurbongohi tavsifi, barpo bo'lish tarixi va ushbu qurbongohda tasvirlangan Iso Masih hayoti, Iso Masih yuqoriga ko'tarilgandan so'ng havoriylarning boshiga tushgan kulfatlar hamda Zakariyo alayhissalom haqidagi epizotlar haqida so'zlovchi tasvirlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Baldassare degli Embriachi qurbongohi, Embriachi ustaxonasi, Iso Masihning Avliyo Yahyo tomonidan suvgaga cho'mdirilishi, Mariya Magdalenani iymonga chaqirishi, Yahudoning o'pichi, Yuhannoning Rimga kelishi, Yuhannoni qaynayotgan yog'ga tashlanishi, Jonning tug'ilishi.*

ANALYSIS OF THE BALDASSARE EMBRYACHI ALTAR AND ITS SPECIAL FEATURES

Akhatova Zahira Aktam daughter

*Student of the National Institute of Painting and Design
named after Kamoliddin Behzod, Faculty of Art critic and Museum Studies, Art critic
(fine and applied arts) 3rd level*

Annotation: *This article describes the Baldassare degli altar, the history of its construction and the life of Jesus Christ depicted on this altar, the trials that befell the apostles after Jesus Christ ascended, and Zachariasthe images that talk about the episodes were analyzed.*

Keywords: *Baldassare degli Embriachi altarpiece, Embriachi workshop, baptism of Jesus Christ by St. John, calling Mary Magdalene to faith, Judas' kiss, John coming to Rome, John being thrown into boiling oil, birth of John.*

АНАЛИЗ АЛТАРЯ БАЛДАСАРЕ-ДЕГЛЬИ-ЭМБРИАЧИ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

Ахатова Захира Актама дочь



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

студентка Национального института живописи и дизайна имени
Камолиддина Бехзода, факультет искусствовед и музейного дела, искусствовед
(изобразительное и прикладное искусство) 3 ступень

Аннотация: В данной статье описан алтарь Бальдассаре дегльи, созданный мастерской Эмбриачи, история его создания и анализ изображений, повествующих о жизни Иисуса Христа, изображенного на этом алтаре, об испытаниях, выпавших на долю апостолов после вознесения Иисус Христос, и эпизоды о Захарии сделаны.

Ключевые слова: Алтарь Бальдассаре дельи Эмбриачи, мастерская Эмбриачи, Крещение Иисуса Христа св. Иоанном, Призыв Марии Магдалины к вере, Поцелуй Иуды, Приход Иоанна в Рим, Брошение Иоанна в кипящее масло, Рождение Иоанна.

KIRISH

Uyg'onish davrida deyarli barcha taniqli rassomlarning har biri qurbongohlar ishlaganlar. Chunki uyg'onish darida cherkovlar doimiy qurbongoh ishlashdagi talabi yuqori bo'lgan. Qurbongohlardagi tasvirlar iso Masih hayoti Yangi Ahddan olingan lavhalar bo'lib, jamoatni hayratga solishga mo'ljallangan.

ASOSIY QISM

Baldassare degli Embriachi qurbongohi Gersog Jon Berri, grafinya Joan II tomonidan Embriachi ustaxonasiga 1397 yilda buyurtma qilingan. Jan de Berri tomonidan Overgne Sankt-Louis de Poissy priory cherkoviga 1400 yilda topshirilgan.⁹ Qurbongoh, monastrning rohibalar xorida joylashgan va shubhasiz Dominikanlar oldidagi majburiyatlarini eslatish uchun mo'ljallangan. Embriachi ustaxonasining ijod mahsuli hozirda Luvr dekorativ san'at bo'limida saqlanadi. Tehnologiyasiga keladigan bo'lsak, suyak, marquetry, polixromiya va oltindan juda katta mahorat bilan ishlangan. Qurbongohning balandligi 276 sm, kengligi esa 236 smni tashkil qiladi.¹⁰ 15 asr rivojlanish sharoitida ishlangan Embriachi qurbongohi taniqli Gersogning talablarini qondirish uchun mohirlik bilan yaratilgan ijodiy ish sifatida qaraladi.¹¹ Tepadagi uchta burchakda aloxida qilib ishlangan rozalar ichiga o'rtada Bibimaryam va qo'lida Iso Masih o'ng tomonda Iosif, chap tomonda esa avliyo Yuhannolarga farishtalar tazim qilayotgan kompozitsiyada relyeflari berilgan. Qurbongoh o'ngdan chapga, bazi holatlarda chapdan o'nga qarab o'qiladi. Molinier tomonidan aniqlangan sahnalar tartibi 1832 yilda qayta tiklash paytida o'zgartirilgan bo'lishi mumkin.

Markaziy bo'limda 25 ta panel bo'lib Bibimaryam va Iso Masih hayotidan lavhalar ya'ni tepada 2 ta panelni o'rniqa joylashtirilgan holatda Iso Masihning xochga osilishi, Bibimaryamga iloxiy Xushxabar kelishi, Iso Masihning Avliyo Yahyo

⁹ <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357>

¹⁰ <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357#:~:text=Joan%20II%2C%20Overgne%20grafinya>

¹¹ https://www.researchgate.net/publication/297930163_The_Embriachi_altarpiece_in_the_Louvre_dating_function_purpose_and_iconography



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tomonidan suvgaga cho'mdirilishi, Iso Masihning ko'rsatgan mo'jizalari, ko'r, Maxov, Bukrilarni tuzatishi, jin kirgan odamlarni jindan xalos qilishi kabi mo'jizalar, so'ngi ovqat, Yahudoning o'pichi, Shaytonning vasvasaga solishi, Mariya Magdalenani iymonga chaqirishi, Zaytun bog'idagi azob va Iso Masih bilan bog'liq bo'lган barcha lavhalar o'rın olgan.

O'ng bo'lim esa 19 tadan panel joy olgan bo'lib Avliyo Yuhanno va Jon Berri hayotidagi lavhalar o'rın olgan. Jon Berri bu qurbongohni buyurtma qilgani sababli o'zining hayotidagi sarguzashtlar o'yib ishlanishini aytib o'tgan. Mavzular esa Yuhanno Shon shuxratda taxtga o'tirishi, Yuhannoning ko'tarilishi, Yuhannoning Rimga kelishi, o'liklarni tiriltirishi, Yuhannoni qaynayotgan yog'ga tashlanishi, Yuhanno xushxabar keltirishi va Jon bilan bog'liq epizodlar, ikki yosh Kraton qimmatbaxo toshlarni changga aylantirishi, Jon esa ularni boshqatdan toshga aylantirishi, zaharlanganlarning oilasi Jondan ularni tiriltirishini so'rashi, Jon ularning ustiga plashini yopishi, zaharlanganlar tirilganidan so'ng iymonga kelishi, zaharlangan kosadagi ichimlikni tatib ko'rishi, Jonning qabri ochilishi va Kraton bilan bog'liq bo'lган sahnalar joy olgan.

Chap bo'limda ham 19 ta panel bo'lib Suvga cho'mdiruvchi Yahyo uning tug'ilishi, fayziylarga vaz qilishi, askarlarga vaz qilishi, Masihni rad etishi, Xudoning qo'zisiga ishora qilishi, Yahyoning ikki shogirdi Masihning oldiga so'roqqa borishi, Yahyo Salomeyaning onasini zinosi uchun haqorat qilishi, Salomeyaning raqsi, Salomeya Irotdan Yahyoni boshini olishni so'rashi, Shox Irot Salomeyaga Yahyoning boshini patnosga olib keltirishi, Nasroniyalar Yahyoning qabrida ibodat qilishi va Zakariyo bilan bog'liq sahnalar yoritilgan.¹² Qurbongohning eng pastidagi 12 ta panelda o'n ikki favoriy haykallari o'yib ishlangan. Afsuski hozirgi kunda o'ng va chap tomonda ham ikkitadan haykallar saqlanib qolmagan. Uning saqlanib qolmaganligi haqida hech qanday aniq fakt keltirilmagan. Embriachi ustaxonasining asosiy elementi hisoblangan Kertosina naqshi qurbongohning barcha panellarining bo'linishida xizmat qilgan. Turli qismlari zimbalar va tirkaklar bilan yig'iladi. Orqa tomonda, aniq ko'rindigan armatura katta panellarni ushlab turadi. Bu mavzularning aniq tahliliga fikrimizni qaratadigan bo'lsak, Markaziy bo'limdagi Bibimaryamga iloxiy Xushxabar kelishi Xushxabarchi Luka yozishi bo'yicha Bibimaryam Zakariyoning ayolini qarindoshi bo'lган.¹³ U bolaligidanoq Ibodatxonada yashadi. Bibimaryam bir umr bokira bo'lganligini Zakariyoning ayoli bilsada uni xomilador ekanligini payqaydi va sizlar uning ismini Iso qo'yasiz, chunki u o'z xalqini gunohlardan qutqaradi deydi. Shundan keyin Yusuf bu ishga hech qanday shubhasi qolmaydi. Xristianlarning qarashi bo'yicha bibimaryam Masih tug'ilishidan oldin, tug'ilishi paytida va hatto undan keyin ham bokira bo'lganligini aytadi.¹⁴ Suvga cho'mdiruvchi Yahyo Isoni rad etishi, Masihning ijtimoiy faoliyati boshlanganda, Yahyo cho'mdiruvchi Falastinda va'z qildi. Qadimgi bashoratlarga ko'ra, U Najotkorning

¹² https://fr.wikipedia.org/wiki/Retable_de_Poissy

¹³ [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Elizabeth_\(biblical_figure\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Elizabeth_(biblical_figure))

¹⁴ <https://themeformen.ru/uz/the-types-of-pigmented-spots/pr-v-bibleiskoi-mifologii-mater-bozhya---bogorodica/>

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

avvalgisi bo'lgan. Yahyo kelayotgan Masih nomi bilan suvga cho'mdi. Iso suvga cho'mish to'g'risida iltimos bilan kelganida, Yahyo qo'rqib rad etdi, Xudoning moylanganini tan oldi va o'zi tomonidan suvga cho'mishni xohladi. Iso Masihning suvga cho'mdirilishi, Xristianlarning mifologiyasi bo'yicha Suvga cho'mish Iordan daryosining suvlarida bo'lib o'tdi, uning davomida osmon ochilib, Xudoning Ruhi oq kaptar shaklida Masihga tushdi. Shu payt osmondan: "Bu Mening sevimli O'g'lim, Unga quloq sol", degan ovoz keldi. Bu holat u yerda bo'lganlarning barchasini hayratda qoldirdi.¹⁵ Mariya Magdalenaning iymonga kelish sahnasi, Mariya Magdalena Galileyadagi Tiber ko'li qirg'og'idagi „Magdel Nunaiya” shahridan bo'lgan deyiladi. Luqo Injiliga ko'ra Mariya Magdalena Iso bilan birga sayohat qilgan va uning xizmatini o'z manbalaridan tashqari qo'llab-quvvatlashga yordam bergen ayollardan biri sifatida qayd etilgan. Luqo Xushxabariga ko'ra, bir kuni Iso bir gunohkor ayolning boshida yig'ilgan olomon qarshisidan chiqadi, u yerda Fohisha Mariya Magdalenani odamlar tosh bo'ron qilib o'lirmoqchi bo'lishadi, shunda Iso qani kimning gunohi bo'lmasa qo'lidagi toshni otsin deya vaz qiladi, shunda barcha qo'lidagi toshni tashlaydi va Iso Mariya Magdalenaga shunday deydi sen ham tangri oldida azizsan, va tunda fayziylardan biri Simunning uyiga kechki ovqatga boradi. Ovqatlanish paytida shaharda gunohkor deb tanilgan Mariya Magdalena xonaga kirib, Isoning oyoqlarini ko'z yoshlari bilan namlaydi va sochlari bilan artadi. Keyin uni xushbo'y moy bilan silaydi. Chunki u o'zini bunday ulug' maqomga nomunosib deb biladi va shu darajada pushaymonligidan tavba qilib ko'z yoshlarini tiya olmaydi. Bu holatni ko'rgan Simun: "Agar bu odam payg'ambar bo'lganida, bu ayol kim va qanday ayol ekanligini, uning gunohkor ekanini bilar edi" deydi. Iso Simunga qisqa hikoya aytib beradi va keyin u ham uni boshqalardan ko'ra ko'proq sevishini, chunki u ayolning gunohlarini boshqalardan ko'ra ko'proq kechirganini aytadi. Keyin u ayolga qarab: Gunohlaringiz kechirildi... Imoningiz sizni qutqardi. Luqo Xushxabarida tilga olingan bu gunohkor ayol Mariya Magdalena hisoblanadi.¹⁶ Yahudoning o'pichi, Yahudo bu harakati Iso Masihni bosh ruhoniylar va xalqning oqsoqollari uni hibsga olishi uchun ataylab qilingan xabardir. O'pich Yahudo tomonidan zaytun bog'ida Getsemaniya va oxirgi kechki ovqatdan so'ng qilinishi kerakligi to'g'risida buyruq olgan bo'ladi. Yahudo Iso Masihning asl o'n ikki havoriyalaridan biri edi. Havoriyarning aksariyati Jaliladan kelib chiqqan, ammo Yahudo Yahudiyadan kelgan. Yustus Knecht Yahudoning o'pishi haqida yozadi: U xiyonatkor o'pishidan bosh tortmadi: u muqaddas yuzini bu yaramas xoinning lablariga tegizish uchun azob chekdi va hatto uni chaqirdi: "do'stim"! "Men sizga doim do'stim sifatida munosabatda bo'lganman", demoqchi edi u: "nega endi dushmanlarimning boshiga kelib, meni o'pich orqali menga xiyonat qilasiz"! Rabbimizning bu mehrli muomalasi noshukur xoinga oxirgi soatlik inoyat edi. Iso unga yomon jinoyatidan qat'iy nazar uni hali ham

¹⁵ <https://gigafox.ru/uz/children/rasskaz-detyam-o-iisuse-hriste-o-hristianskoi-zhizni/>

¹⁶ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mary_Magdalene

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sevishini va uni kechirishga tayyor ekanligini tushunish uchun berdi.¹⁷ O'ng bo'limdagi syujetlar, Rabbiy osmonga ko'tarilganidan keyin shogirdlar qanday harakat qilishdi? Havoriy Yuhanno qaynayotgan yog'ga tashlangan. Butrus xochga mixlangan. Ammo ular bunday narsalardan qo'rqedilar. Ular faqat Xudo ularga chiqish yo'lini berishiga yoki hamma narsaning yaxshiligi uchun ishlashiga ishonishdi, chunki Xudo ular tomonda edi. Qolaversa, ular chiqish yo'li topa olmagan bo'lsalar ham, lekin Rabbiyning nomi uchun azob chekishsa ham, ular Xudoni sevganlari uchun hech qanday azobdan qo'rqedilar.¹⁸ Yuhanno, Rimdag'i quvg'inlar davrida qaynoq yog' bilan katta qozonga tashlanib, u azob-uqubatga uchradi. Shunga qaramay, u mo'jizaviy ravishda o'limdan qochib, Patmos orolining konlariga quvg'in qilingan. U yerda u o'zining bashoratli Vahiy kitobini yozgan. Keyinchalik u ozod qilindi va hozirgi paytda Turkiya davlatiga qarashli bo'lган yerlarga qaytib keldi. U keksalikdan vafot etdi — u o'zining o'limi bilan vafot etgan yagona havoriy.¹⁹

Shoh Irod Yahudiyaning hokimi edi. Shoh o'z fuqarolari jamoatchilik bilan aloqada muammoga duch kelgan va suvga Cho'mdiruvchi Yahyo unga yordam bermagan. Shunday qilib, u Yahyoni hibsga olish uchun o'z askarlarini yubordi. U yonidagi bu tikan bilan nima qilishni aniqlay olmaguncha, uni zindonda zanjirband qildi. Bu orada u o'z fuqarolarini har tomonlama suiste'mol qilishni davom ettirdi. Ammo dam olish uchun u zodagonlari uchun shohligining afzalliklarini his qilishlari uchun tantanali ziyofat o'tkazishga qaror qildi. O'yin-kulgi vaqtida xotinining akasini qizi bo'lган Salomeya mehmonlar uchun raqs tushib berishi kerak bo'ladi, chunki u ajoyib raqqosa edi, lekin u mehmonlari uchun raqsga tushishini so'raganda, u rad etdi. Uning rad etishidan hayratda qolgan Shox nima xoxlasa barchasini qilish vadasini beradi. Shunda Endi Salomeyaning onasi suvga Cho'mdiruvchi Yahyo tomonidan zino qilganida taxqirlangani uchun undan o'ch olish niyatida, Salomeyadan Cho'mdiruvchi Yahyoning boshini olib kelish shartini aytishini so'raydi, Bu Irod uchun ham yaxshi taklif bo'ladi va shartiga ko'nadi. Salomeya raqsga tushib beradi va shu ziyofatning o'zida suvga cho'mdiruvchi Yahyoning boshini kumush patnosda keltiradi. Bu ishdan Salomeya va onasi juda xursand bo'ladi ayni shu lavha chap bo'limining bir nechta panelidan joy olgan.²⁰

Zakariyo bilan bo'lган epizotlar, Zakariyo payg'ambarlardan biri va Elizabettaning eri edi, ammo ularning farzndlari yo'q edi. Shu sababli bir kuni uning oldiga farishta keldi va unga dedi: "qo'rqmang, Zakariyo; xotiningiz Elizabeth sizga o'g'il tug'adi va siz uni jon deb chaqirishingiz kerak. U siz uchun quvonch va zavq bo'ladi, va uning tug'ilishi tufayli ko'plar quvonishadi, chunki u Rabbiyning huzurida buyuk bo'ladi. U hech qachon sharob qabul qilmaydi va u tug'ilishidan oldin ham Muqaddas Ruhga to'ladi.²¹ Bunday lavhalarining ko'p qismi ushbu qurbongohdan joy olgan.

¹⁷ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Kiss_of_Judas

¹⁸ <https://jaerocklee.com/uz/lecture-on-1-john-45-1-john-418/>

¹⁹ <https://www.gotquestions.org/Uzbek/havorylarning-olimi.html>

²⁰ <https://herbmandel.wordpress.com/2014/06/12/185/>

²¹ <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357>



XULOSA

Florensiyada Uyg'onish davrining kuchli markazining paydo bo'lishi butun Italiya badiiy madaniyatining yangilanishiga olib keldi. Donatello, Mazacho, Embriachi ustaxonasi vakillari, Lorenzo Giberti va ularning hamkorlari ishi renessans gotika san'ati uchun xos bo'lgan "tafsilotlar realizmi" dan sezilarli darajada farq qiladigan Uyg'onish davri realizmining g'alabasini anglatadi. Embriachi ustaxonasining gotikadan voz kechmagan holatda relyeflarda ikonografiyani kirg'izib ishlashi qubongohlarida seziladi. Ularning bu qurbongohlaridagi Iso Masih hayoti juda chiroyliga va rang barang mavzularga to'xtalishi va judda katta mahorat bilan suyaklarga o'yib tushirishi o'sha davr ijodkorlari naqadar ustalik bilan e'tibor bilan ishlaganini guvohi bo'lamic. Bu ustozlarning ijodi insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilib, insonni ulug'laydi, uni kundalik hayot darajasidan yuqoriga ko'taradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357>
2. <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357#:~:text=Joan%20II%2C%20Overgne%20grafinya>
3. https://www.researchgate.net/publication/297930163_The_Embriachi_altarpiece_in_the_Louvre_dating_function_purpose_and_iconography
4. https://fr.wikipedia.org/wiki/Retable_de_Poissy
5. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Elizabeth_\(biblical_figure\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Elizabeth_(biblical_figure))
6. <https://themeformen.ru/uz/the-types-of-pigmented-spots/pr-v-bibleiskoi-mifologii-mater-bozhyaa---bogorodica/>
7. <https://gigafox.ru/uz/children/rasskaz-detyam-o-iisuse-hriste-o-hristianskoi-zhizni/>
8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mary_Magdalene
9. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Kiss_of_Judas
10. <https://jaerocklee.com/uz/lecture-on-1-john-45-1-john-418/>
11. <https://www.gotquestions.org/Uzbek/havoriylarning-olimi.html>
12. <https://herbmandel.wordpress.com/2014/06/12/185/>
13. <https://m.wikidata.org/wiki/Q15992357>

